

**ONA TILI VA ADABIYOTI FANI O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Badalbaeva Sohibahon Abdurahimovna

Andijon shahar 18-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *adabiyot darslarini tashkil qilishning psixologik-didaktik shartlarini ta'limming metod va shakllaridan urinli foydalanish tashkil etadi. Malaka oshirish kurslarida adabiyot o'qituvchilarida o'quv faolligini yuzaga keltirish va ularda adabiyot darslarini to'g'ri, samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim turlaridan yana biri - bu interfaol ta'lim sanaladi.*

Kalit so'zlar: *notiq, mantiq, ilm, ijod, tafakkur, nutq, o'quvchilar, til, o'qituvchi, nafosat, lug'atshunos, ona tili, adabiyot, matn, lug'at.*

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'mi beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalgalash oshiriladi.

Fan nuqtayi nazaridan, ayniqsa, adabiyot darslarida, mashg'ulot va adabiy kechalarda Navoiy, Bobur, Nodira, Zulfiya, badiiy asar qahramonlaridan Alpomish, Barchinoy, Farhod, Shirin, Otabek, Kumush obrazlarini mohirona gavdalantirish o'quvchilarda shaxsiy sifatlarning yuksalib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz hayotidan ibrat olish va ularga hurmat tuyg'ulari yuksaladi. Faoliyatim davomida anglab yetgan haqiqatlarimni, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarni sanab o'tsam.

1. Notiq. Mantiq ilmiga asoslangan, haqiqiy ijodiy tafakkurga boy, go'zal, aniq nutq sohibi bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarni tildan maqsadli va o'rinali foydalanishga, sof adabiy tilda so'zlashishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi sof, ta'sirchan nutqiy nafosat egasi bo'lishi talab etiladi.

2. Lug'atshunos. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda lug'atlar bilan ishslash muhim ahamiyatga ega. "O'zbek tilining imlo lug'ati" so'zlarni to'g'ri yozish malakalarini shakllantirsa, "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" tilimizdag'i so'zlarning ma'nodoshlik qatori, nutqda ulardan o'rinali foydalanish mahoratini rivojlantiradi. Masalan, 8-sinf ona tili darsligini tashkil etgan "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishslash" darslari fan o'qituvchisidan lug'atshunos bo'lishni talab etadi.

3. San'atkor. Adabiyot ham aslida san'at — so'z san'ati. Adabiyotni sevgan qalb, san'atning boshqa turlarini ham tushunadi. Shunday o'quvchilar borki, darslikdagi mavzuga oid (ilmiy) axborotlarni a'lo bahoga o'zlashtirilmaydi. Lekin shu mavzuga doir mo'yqalamda,

kashtada, zardo'zlikda (san'atning boshqa turlarida) bajargan ishlari kishini lol qoldiradi. Bunda fan o'qituvchisidan dars, mashg'ulot, sinfdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarning iste'dod va qobiliyatlarini anglagan holda yondashish talab etiladi.

Balki bu sifatlar qatorini hali davom ettirsa bo'lar. Maqsad bitta – bugunning o'qituvchisi nomiga munosib bo'lish.

O'qish va o'zlashtirish ishlarining qiyinlik darajasi tinglovchini murakkab intellektual holatga solishi, shu bilan birga, yechimi ularning mustaqil izlanishlari, imkoniyatlari va faoliyatlar darajasida bo'lishi kerak. O'quv materiali darsning maqsad va mazmuniga, DTS va o'quv-mavzu reja va dastur talablariga, didaktik vazifalarga mos tushadigan metod va usullar orqali uzlashtirilishi zarur. Malaka oshirish tizimida dasturlashtirilgan ta'limgan foydalanish tinglovchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, ular o'z kasbiy faoliyatlarini tashkil etishda duch kelayotgan muammolar, shuningdek, adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Treninglar. Malaka oshirish jarayonida adabiyot o'qituvchilarida darslarni tashkil etish borasidagi quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishda treninglar o'ziga xos ahamiyatga ega;

- zarur o'quv-metodik hujjatlar (ish rejasi, hisobotlar)ni yuritish; o'quvchilarda shaxslik fazilatlarini qaror toptirish; o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash; o'quvchilarga asardagi qahramonlar obrazi orqali ezgu xulq va fazilatlarni singdirish; dars jarayonida uchraydigan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish choralarini topish; ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha pedagogik, metodik ko'rsatmalarni o'zlashtirish;
- ta'lim subyektlari, jamoa a'zolari va boshqalar bilan yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini bilish;
- o'quvchilarning qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini inobatga olish asosida ularni muayyan kasb yoki hunarlarga to'g'ri yo'naltirish;
- samarali ta'lim metodlari va ilg'or pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda faol foydalanish; shaxslararo munosabatlarni hamda adabiyot darslarini samarali tashkil etishga, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlaitirishga yordam beruvchi treninglar tashkil etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar,o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta,oson va tez bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Камила Ерлановна Узгунова and Махмудова, Диляфруз Балтабаевна "ВАЖНОСТЬ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." PEDAGOG 6.3 (2023): 516-519.
2. Махмудова, Д. Б., & Узгунова, К. Е. (2023). ВАЖНОСТЬ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ. PEDAGOG, 6(3), 516-519.
3. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665/1539>

5 IYUN / 2023 YIL / 30 – SON

4. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2430/2095>
5. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665>
6. <file:///C:/Users/User/Downloads/ona-tili-va-adabiyot-darslarida-zamonaviy-pedagogik-texnologiyalarni-qo-llashning-o-ziga-xos-jihatlari.pdf>